

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 99 866,1 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 6,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 112,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,9 % ga yetdi.

2024- yil uchun Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



106,9 %

99 866,1 mlrd so'm

112,4 %

6,9 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	83 149,5	99 866,1	106,9
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 760,3	98 296,2	106,8
mahsulotlarga sof soliqlar	1 389,2	1 569,9	107,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 760,3	98 296,2	106,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28 342,3	31 921,8	102,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	17 823,6	22 179,3	108,8
sanoat	12 722,0	16 413,3	107,6
qurilish	5 101,6	5 766,0	111,7
xizmatlar	35 594,4	44 195,1	109,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11 959,2	15 069,7	114,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5 417,8	7 068,7	117,8
boshqa xizmat tarmoqlari	18 217,4	22 056,7	103,4

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 23 481,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,6 % ga yuqoridir.

**2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi**
(ming so'mda)



**2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,7	32,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	21,8	22,6
sanoat	15,6	16,7
qurilish	6,2	5,9
xizmatlar	43,5	44,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,6	15,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,6	7,2
boshqa xizmat tarmoqlari	22,3	22,4

2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,5 % ni, sanoat tarmog'i 16,7 % ni, qurilish 5,9 % ni va xizmatlar sohasi 44,9 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2023- yilda – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2023- yilda – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yilda – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,0 f.p. (2023- yilda – 3,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,5 %), sanoatda – 107,6 % (16,7 %), qurilishda – 111,7 % (5,9 %), xizmatlar sohasida – 109,2 % ni (44,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,0 % (15,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,8 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (22,4 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlariga nisbatan 112,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 119,9 % va xizmatlarda – 113,7 % qayd etildi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 71 019,1 mlrd soʻmni tashkil etdi (2023- yilda – 59 100,2 mlrd soʻm). YAHMdagi ulushi 72,3 % ni (2023- yilda – 72,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi oʻtgan yilga nisbatan oʻzgarishsiz qoldi.

2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

59 100,2

72,3 %

2024- yil

71 019,1

72,3 %

